

PRESS-RELIZ

Buyuk Ipak yo‘lidan kosmik texnologiyalar sari: O‘zbekiston va Xitoy “Samarkand-2028” sun’iy yo‘ldoshini orbitaga chiqardi

**Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi / Haiyang, Xitoy Xalq Respublikasi
2026-yil 5-avgust**

2026-yil 5-avgust kuni Toshkent vaqti bilan soat 07:00 dan 09:00 gacha Xitoy Xalq Respublikasining Haiyang Sharqiy kosmodromidan STAR.VISION kompaniyasi tomonidan “O‘zbekkosmos” agentligi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan “Samarkand-2028” Yerni masofadan zondlash sun’iy yo‘ldoshi muvaffaqiyatli orbitaga chiqarildi.

“Samarkand-2028” sun’iy yo‘ldoshining uchirilishi O‘zbekiston Respublikasi tarixidagi eng yirik xalqaro kosmik loyiha bo‘lib, mamlakat milliy kosmik dasturi rivojida yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur loyiha, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi strategik ilmiy-texnologik hamkorlikning yangi sahifasini ochmoqda.

Missiyaning eng muhim jihatlaridan biri shundan iboratki, STAR.VISION kompaniyasining xalqaro loyihalari tarixida ilk bor “O‘zbekkosmos” agentligi muhandislari tomonidan ishlab chiqilgan sun’iy intellekt moduli sun’iy yo‘ldosh tarkibiga integratsiya qilindi. Mazkur texnologiya sun’iy yo‘ldosh tomonidan olingan ma’lumotlarni bevosita orbitaning o‘zida qayta ishlash imkonini beradi. Natijada uzatiladigan ma’lumotlar hajmi sezilarli darajada qisqaradi, natijalarni olish tezlashadi hamda keyingi tahlil jarayonining samaradorligi yanada oshadi.

“Samarkand-2028” missiyasi qishloq xo‘jaligi, ekologiya, tabiiy resurslarni monitoring qilish, suv resurslarini boshqarish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, shaharsozlik hamda iqtisodiyotning boshqa strategik yo‘nalishlarida kosmik texnologiyalarni qo‘llash uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi. Shu bilan birga, loyiha kosmik muhandislik, sun’iy intellekt va sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlarini qayta ishlash sohalarida mamlakatning milliy salohiyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Missiyaga alohida ramziy mazmun bag‘ishlayotgan jihatlardan biri sun’iy yo‘ldoshning **“Samarkand-2028”** deb nomlanishidir. Ushbu nom bejiz tanlanmagan. U 2025-yilda Sidney shahrida bo‘lib o‘tgan **76-Xalqaro astronomiya kongressi (IAC)** davomida qabul qilingan tarixiy qarorni ifodalaydi. Aynan **“O‘zbekkosmos” agentligi** tashabbusi va sa’y-harakatlari natijasida Samarqand shahri bir ovozdan **2028-yilda bo‘lib o‘tadigan 79-Xalqaro astronomiya kongressi** mezboni etib saylangan edi.

Mazkur voqea nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo uchun ham tarixiy yutuq bo‘ldi. Zero, mintaqa tarixida ilk bor jahon kosmik sanoatining eng yirik xalqaro forumiga mezbonlik qilish huquqini qo‘lga kiritdi. Aynan ushbu tarixiy muvaffaqiyat **“Samarkand-2028”** nomining tanlanishiga asos bo‘lib xizmat qildi va u bugungi kunda O‘zbekiston kosmik sanoatining jadal rivojlanishi, mamlakatning global kosmik hamjamiyatdagi nufuzi tobora ortib borayotganining yorqin ramziga aylandi.

Bundan tashqari, ushbu nom chuqur tarixiy ma’noga ham ega. Samarqand asrlar davomida ilm-fan, astronomiya va ma’rifatning dunyodagi yirik markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Aynan shu zaminda XV asrda buyuk alloma va davlat arbobi **Mirzo Ulug‘bek** o‘z davrining eng mukammal astronomik rasadxonalaridan birini bunyod etgan.

Shuhrat Kadirov – “O‘zbekkosmos” agentligi direktori

– “Samarkand-2028” sun’iy yo‘ldoshining muvaffaqiyatli orbitaga chiqarilishi O‘zbekiston uchun chinakam tarixiy voqeadir. Bugun mamlakatimiz kosmik texnologiyalardan faqat foydalanuvchi emas, balki ularni yaratishda ham to‘laqonli ishtirok etayotgan davlatga aylanmoqda.

Ayniqsa, “O‘zbekkosmos” agentligi mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan sun’iy intellekt modulining ilk bor ana shunday yirik xalqaro sun’iy yo‘ldosh loyihasiga integratsiya qilingani alohida ramziy ahamiyatga ega.

Sun’iy yo‘ldoshga “Samarkand” nomi berilgani ham bejiz emas. Bu nom mamlakatimizning boy ilmiy merosini o‘zida aks ettiradi va xitoylik hamkorlarimizning O‘zbekiston tarixi hamda madaniyatiga bo‘lgan yuksak hurmatining ifodasidir.

Mazkur yutuqlarning barchasi Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan ochiqlik siyosati, izchil islohotlar hamda ilm-fan, innovatsiyalar va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan strategik siyosat samarasidir. Aynan shunday yondashuv O‘zbekiston kosmik tarmog‘ini sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi hamda jahon miqyosidagi loyihalarni amalga oshirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Ishonchim komilki, ushbu missiya O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasida kosmik sohadagi strategik hamkorlikni yanada kengaytirish uchun ishonchli platformaga aylanadi.”

Hu Bin – STAR.VISION (Xitoy) kompaniyasining Biznesni rivojlantirish bo'yicha vitse-prezidenti

– *“Samarkand-2028” loyihasi xalqaro hamkorlik ilg'or muhandislik yechimlari va innovatsion texnologiyalarni qanday uyg'unlashtira olishini yaqqol namoyon etadi.*

“Samarkand” nomining tanlanishi O'zbekistonning boy tarixiy merosiga bo'lgan chuqur hurmatimizni ifodalaydi hamda o'zbekistonlik hamkasblarimiz bilan uzoq muddatli strategik sheriklikni rivojlantirishga intilishimizni aks ettiradi.

Biz “O'zbekkosmos” agentligi mutaxassislarining, ayniqsa, sun'iy intellekt yo'nalishidagi hissasini yuksak qadrlaymiz. Ularning ishlanmalari sun'iy yo'ldosh arxitekturasining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

Ishonamizki, ushbu missiya kosmik texnologiyalar rivojiga munosib hissa qo'shadi hamda Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlaydi.”

“Samarkand-2028” sun'iy yo'ldoshining muvaffaqiyatli uchirilishi O'zbekistonning jahon kosmik ekotizimiga faol integratsiyalashish, xalqaro ilmiy-texnik hamkorlikni kengaytirish hamda ilg'or texnologiyalarni mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yo'lida keng joriy etishga bo'lgan qat'iy intilishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Loyiha, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi o'zaro ishonchning yuksak darajasini namoyon etadi hamda kosmik tadqiqotlar, sun'iy yo'ldosh texnologiyalari, sun'iy intellekt, muhandis kadrlarni tayyorlash bilan bog'liq yangi qo'shma tashabbuslarni amalga oshirish uchun mustahkam asos yaratadi.